

**TIL UNIVERSALIYASIDA GRAMMATIK KATEGORIYA TUSHUNCHASI.
KELISHIK KATEGORIYASI VA UNING IFODALANISHI**

Raimberdiyeva Gulnora Husan qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)

yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: M. Madayeva

Annotatsiya: Maqolada grammatik kategoriya tushunchasi va uning tavsifi, grammatik ma'no hamda grammatik shakl haqida so'z boradi. O'zbek, rus, arab va ingliz tillaridagi kelishik kategoriyalarini o'zaro taqqoslagan holda ularning o'xshash hamda farqli jihatlari to'g'risida ma'lumot beriladi. Shuningdek, ularning ifodalanishi, sintaktik tahlil jarayonida kelishik shakllarini qabul qilgan so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelishi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: grammatik ma'no, grammatik shakl, sintaktik vazifa, grammatik kategoriya, sinonimiya, kelishik kategoriyasi, grammatik jins, ko'makchilar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirda dunyoda hind-yevropa, turkiy, xom-som, xitoy-tibet singari bir qancha til oilalariga mansub bo'lgan 7000 ga yaqin til mavjud. Mazkur tillarning nafaqat leksik, balki grammatik qurilishida ham qator farq va o'xshashliklar ko'zga tashlanadi. Bu kabi jihatlarning paydo bo'lishida, avvalo, tillarning kelib chiqishi, qaysi oilaga mansubligi va bir-biriga qay darajada yaqin ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bir oilaga mansub tillar orasidagi leksik-grammatik o'xshashliklar salmog'i anchagina katta. Jumladan, turkiy tillar oilasiga mansub o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur va yana boshqa bir necha tillarda so'zlashuvchilar mazkur tillar o'rtasidagi o'xshash jihatlar tufayli bir-birlarini ma'lum darajada tushuna olishadi. Bir til oilasiga kirmaydigan, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik til sathlari nuqtayi nazaridan bir-biridan keskin farqlanuvchi tillar orasida ham qisman o'xshashliklar kuzatilishi mumkin. Umumiy tilshunoslikda dunyo tillarini bir nuqtada kesishtiruvchi grammatik kategoriya tushunchasi ham ana shunday o'xshash jihatlardan biri sanaladi.

Nutqning eng kichik ma'no ifodalovchi birliklari anglatgan ma'nosiga ko'ra leksik va grammatik morflarga ajratiladi. Demak, tilda asosan ikki xil: leksik va grammatik ma'no bor.

Leksik ma'no tashqi dunyodagi birorta voqea, hodisa, ish - harakat, belgi, rang, son kabi ma'nolar bilan bog'langandir. Qiyoslang: uy, shodlik, yugur, sariq, besh va hokazo. Grammatik ma'no leksik ma'nodan farq qilib, leksik ma'no singari dunyodagi narsa va voqealarni aks ettirmaydi. Grammatik ma'no bir yoki bir necha so'z

turkumiga xos bo‘ladi. Leksik ma’no leksik vositalar bilan bog‘liq bo‘lganidek, grammatik ma’no tillarning grammatik vositalari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Leksik va grammatik ma’nolar xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farq qilsa ham, ishlatilishda, ya’ni nutqda bir-biriga uzviy bog‘langan. Biri ikkinchisiz uchramaydi: faqat leksik vositalar bo‘lib, grammatik vositalar bo‘lmasa, yo, aksincha, faqat grammatik vositalar bo‘lib, leksik vositalar bo‘lmasa, kishilar bir-biri bilan muloqot qila olmaydi, til o‘zining asosiy kommunikativ vazifasini o‘tay olmaydi. Grammatik ma’no leksik ma’noga qo‘shimcha ravishda namoyon bo‘ladi va turli grammatik munosabatlarni ifodalaydi: bir so‘zning ikkinchi so‘zga bo‘lgan munosabatini, so‘zni shaxsga, songa, zamonga va hokazolarga bo‘lgan aloqasini ko‘rsatadi. Odatda, leksik ma’no muayyan, grammatik ma’no esa mavhum ma’no deyiladi.

Grammatik ma’noning hammasini mavhum deyish maqsadga muvofiq emas. Chunki ko‘pincha grammatik ma’no borliqdagi munosabatlarni aks ettiradi. Agar leksik ma’no atrof-tevarakdagi ma’lum narsa, hodisalarni anglatrsa, grammatik ma’no ana shu narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, umumlashtiradi, guruhlariga, turkumlarga ajratadi. Tashqi dunyodagi narsa va hodisalarning boshqa narsa va hodisalar bilan aloqaga kirishishi tilda leksik va grammatik vositalar orqali ifodalanadi. [6. 52]

Grammatik ma’no ifodalovchi morfologik ko‘rsatkich grammatik shakl yasovchi yoki, qisqacha qilib, grammatik shakl deb yuritiladi. O‘zbek tilshunoslari o‘zbek tilining agglyutinativ tabiati va o‘ziga xos shakl yasash xususiyatiga tayangan holda grammatik ko‘rsatkichlarning quyidagi tasnifini berishgan. Bunga ko‘ra:

- a) lug‘aviy shakl hosil qiluvchi;
- b) sintaktik shakl hosil qiluvchi;
- c) lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi farqlandi. [9. 160]

Lug‘aviy shakl hosil qiluvchi. Mazkur grammatik shakl o‘zi qo‘shilayotgan so‘zning lug‘aviy ma’nosiga ma’lum darajada o‘zgartirish kiritrsa-da, so‘z yasovchi affikslardan farqli o‘laroq ularga butunlay yangicha ma’no yuklamaydi. Masalan, “qalam” so‘ziga “-don” narsa oti yasovchi affiksni qo‘shish natijasida “qalamdon” so‘zini hosil qilamiz. Bunda “qalam” so‘zi yozish-chizish ishlari uchun ishlatiladigan, asosan, yog‘och cho‘p orasida ingichka, uzun granit parchasini joylashtirish orqali yasaluvchi buyumni ifodalaydi. Endi esa mazkur narsa nomidan so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida aynan shu va shu kabi o‘quv qurollarini saqlash maqsadida ishlatiladigan boshqa bir buyum nomi hosil qilindi. Ayni shu so‘zning o‘zagiga “-lar” lug‘aviy shakl hosil qiluvchi affiksini qo‘shsak, uning semasiga qo‘shimcha ma’no yuklatiladi, ammo to‘laqonli yangi so‘z hosil qilinmaydi.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi. Bu grammatik shakl o‘zi qo‘shilayotgan so‘zni gapdagi boshqa so‘zlarga bog‘lash yoxud ularga ma’lum sintaktik vazifa berishni

amalga oshiradi. Sintaktik shakl hosil qiluvchilar soʻzning leksik maʼnosiga taʼsir koʻrsata olmaydi.

Lugʻaviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi. Oʻzbek tilida shunday shakllar borki, ular bir tomondan soʻzning leksik maʼnosiga taʼsir etadi, ikkinchi tomondan ularni grammatik aloqaga kiritadi. Oʻzgalovchi kategoriya shakllari shunday ikkiyoqlama mohiyatga ega. Masalan, shoshilib gapirmoq birikmasida (-ib) ravishdosh shakli (shoshil) soʻzining lugʻaviy maʼnosiga ham taʼsir etgan, yaʼni unga ravishlik maʼnosiga yaqin maʼno bergan, shu bilan birga, bu soʻzni keyingi soʻzga bogʻlash vazifasini ham bajarmoqda. Shuning uchun oʻzgalovchi kategoriya shakllari lugʻaviy shakl hosil qiluvchilar va sintaktik shakl hosil qiluvchilar orasida oraliq vaziyatni egallab, lugʻaviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi atamasi bilan yuritiladi.

Muayyan maʼno umumiyliги ostida birlashgan va oʻzaro bu maʼnoning parchalanishi, xususiylashuvi asosida zidlanadigan shakllar sistemasi **grammatik kategoriya** deb ataladi.

Oʻzbek tilshunosligida tilimizdagi 9 ta grammatik kategoriya mavjudligi tan olinadi:

- 1) nisbat kategoriyasi;
- 2) oʻzgalovchi kategoriyasi;
- 3) harakat tarzi kategoriyasi;
- 4) boʻlishli-boʻlishsizlik kategoriyasi;
- 5) son kategoriyasi;
- 6) daraja kategoriyasi;
- 7) kelishik kategoriyasi;
- 8) egalik kategoriyasi;
- 9) kesimlik kategoriyasi:
 - 9.1) shaxs-son;
 - 9.2) zamon;
 - 9.3) tasdiq-inkor;
 - 9.4) mayl (modallik). [9. 167]

Kelishik kategoriyasi. Otning boshqa soʻz turkumiga munosabati kelishik kategoriyasi orqali ifodalanadi. Bu kategoriya borliqdagi narsa, sifat va hodisalar oʻrtasidagi aloqa munosabatlarini belgilaydi. Kelishik kategoriyasini ifodalovchi grammatik vositalar ot va otlashgan soʻzlarning sintaktik vazifasini koʻrsatadi. Shuning uchun koʻpchilik tilshunoslar bu kategoriyani morfologik-sintaktik kategoriya deb yuritishadi. Kelishik maʼnolari grammatik affiksial morfemalar orqali ifodalanadi.

Kelishik qoʻshimchalari grammatik maʼnoni anglatadi. Bu qoʻshimchalar faqat matn soʻzlari oʻrtasidagi munosabatni emas, balki borliqdagi kishilar, narsalar va hodisalar oʻrtasidagi muayyan munosabatlarni ham aks ettiradi. Agar biz, Anvar uydan chiqdi, desak, -dan anglatgan grammatik maʼno Anvar degan shaxsni birorta uydan chiqqanini ifodalaydi.

Tillarda kelishiklar ishga tushishi uchun kamida ikki soʻz munosabatga kirishishi kerak. Bir-biri bilan bogʻlangan ikki mustaqil soʻz bor joyda sintaksis kuchga kiradi.

Kelishik kategoriyasi bir necha xususiy maʼnodan va bu maʼnolarni ifodalovchi vositalardan tashkil topadi. Kelishiklarning soni tillarda bir xil emas. Hozirgi zamon ingliz tilida ikkita, nemis tilida - toʻrtta, oʻzbek va rus tillarida - oltita, eston tilida oʻn beshta, venger tilida esa yigirmatadan ortiq kelishiklar bor. Xitoy-tibet tillarida va hozirgi fransuz tilida kelishik umuman yoʻq. Kelishik yoʻq tillarda gapdagi soʻzlar oʻrtasidagi munosabat boshqa grammatik vositalar yordamida amalga oshiriladi. [6. 79]

Qadimgi turkiy tilda bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, vosita kelishigi («-и», «-ы», «-in», «-yn», «-un», «-on», «-en»), joʻnalish kelishigi, oʻrin-payt kelishigi, chiqish kelishigi boʻlgan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida shulardan bittasi - vosita kelishigi yoʻq. U qadimgi turkiy tilda «bilan» koʻmakchisi funksiyasiga teng boʻlgan: masalan, tilin sozsp, qolqaqbin eshidip («tili bilan soʻzlab, qulogʻi bilan eshitib...») kabi. [7. 14]

Kelishik nomi	Kelishik shakllari	Misollar
Bosh kelishik	-	atirgul
Qaratqich kelishigi	-ning	atirgulning
Tushum kelishigi	-ni	atirgulni
Joʻnalish kelishigi	-ga (-ka, -qa)	atirgulga
Oʻrin-payt kelishigi	-da	atirgulda
Chiqish kelishigi	-dan	atirguldand

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, morf- **nutqning** morfologik yarusidagi eng kichik maʼno ifodalovchi birlik, morfema esa **tilning** morfologik yarusidagi eng kichik maʼno anglatuvchi birlik hisoblanadi. Morfema nutq jarayonida bir yoki bir necha morf orqali ifodalanishi mumkin. Shunga koʻra morf va morfema tushunchalari har doim ham bir-biriga mutanosib kelavermaydi. Buni oʻzbek tilidagi kelishik kategoriyasining joʻnalish kelishigi shaklining ifodalanishi misolida koʻrishimiz ham mumkin. Bunda yoʻnalganlik, atalganlik maʼnosini bildiruvchi kelishik morfemasi nutqimizda 3 ta morf orqali roʻyobga chiqadi (bogʻchaga, terakka, qishloqqa va h.k.) Xolbuki, bu morflar maʼno-mazmun jihatdan bir-biriga teng va ular tilshunosligimizda **allomorf** deb yuritiladi.

Kelishik qoʻshimchalarining biri oʻrnida ikkinchisi koʻpincha almashinib kelishi va birikma maʼnosiga taʼsir etishi mumkin.

Avvalo, **og‘zaki nutqda** qaratqich kelishigi shakli bilan tushum kelishigi shakli farqlanmaydi. Har ikki kelishik uchun tushum kelishigi shakli ishlatiladi, lekin bunday qo‘llanish ma‘noni o‘zgartirmaydi.

Qaratqich kelishigi shakli va tushum kelishigi shakli belgisiz qo‘llanilishi mumkin. Masalan, o‘rikning guli-o‘rik guli. Uzumni yedi- uzum yedi.

Qaratqich qo‘shimchasining bunday ikki xil qo‘llanilishi o‘rtasida quyidagicha ma‘no farqlanishi bor: ikkinchi holatda umuman o‘rik guli ma‘nosi bildirilsa, birinchi holat, ya‘ni qaratqich kelishigi bilan kelgan holatda predmetning aniqligi va bu predmetning ta‘kidlanishini bildiradi. Xuddi shunday ma‘no farqlanishi tushum kelishigining belgisiz holatida ham kuzatiladi: uzumni yedi (so‘zlovchi va tinglovchiga ma‘lum bo‘lgan aniq uzum) - uzum yedi (umuman uzum).

Ba‘zan tushum kelishigi o‘rnida chiqish kelishigi shakli ishlatilishi mumkin. Lekin ularning ma‘nosida ma‘lum farq bor. Tushum kelishigidagi so‘z butunni, chiqish kelishigidagi so‘z qismni bildiradi: oshni oling- hammasini, oshdan oling- bir qismini.

Tushum kelishigi bilan chiqish kelishigi o‘zaro almashinib kelishi mumkin. Bunday vaqtda tushum kelishigi qo‘llanilgan birikma uch xil ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Uzumni yedi- uzum yedi- uzumdan yedi. Birinchi va ikkinchi holatda butun (ya‘ni uzumning hammasi) ma‘nosi bo‘lsa, uchinchi holatda qism ma‘nosi (uzumning bir qismi) ifodalanadi.

Ko‘rinadiki, kelishik qo‘shimchalaridan o‘rinli, maqsadga muvofiq foydalanish fikrni aniq ifodalashga katta yordam beradi.

Kelishik qo‘shimchalarining o‘zaro, shuningdek, ko‘makchilar bilan sinonimiyasi. [8. 80]

Qaratqich kelishigi va chiqish kelishigi	-ning va -dan	Mehmonlarning ulug‘i gapirdi- mehmonlardan ulug‘i gapirdi, jujuqlarning biri- jujuqlardan biri
Tushum va jo‘nalish kelishigi	-ni va -ga	Otni mindi- otga mindi, gapingizni tushunmadim- gapingizga tushunmadim, vazifani tushundi- vazifaga tushundi
Tushum va o‘rin-payt kelishigi	-ni va -da	Bunaqa masalani o‘ylab ko‘rmaganman- bunaqa masalada o‘ylab ko‘rmaganman, o‘rmonni kezib yuribdi- o‘rmonda kezib yuribdi
Tushum va chiqish kelishigi	-ni va -dan	Oshni oling- oshdan oling, uzumni yedi- uzumdan yedi

Jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi	-ga va -da	Darcha yoniga turdi- darcha yonida turdi, ishingizga omad- ishingizda omad
Jo‘nalish va chiqish kelishigi	-ga va -dan	Mehr-muhabbatga to‘ymaydi inson- mehr-muhabbatdan to‘ymaydi inson, ovqatga to‘ymadi- ovqatdan to‘ymadi
O‘rin-payt va chiqish kelishigi	-da va -dan	Radioda gapirdi- radiodan gapirdi
Tushum kelishigi va ko‘makchi	-ni va haqida	Kinoni gapirdi- kino haqida gapirdi
Jo‘nalish kelishigi va ko‘makchi	-ga va tomon	Maktabga bordi- maktab tomon bordi
Jo‘nalish kelishigi va ko‘makchi	-ga va uchun	Ukamga oldim- ukam uchun oldim
Jo‘nalish kelishigi va ko‘makchi	-ga va sari	Daryoga yo‘l oldi- daryo sari yo‘l oldi
O‘rin-payt kelishigi va ko‘makchi	-da va bilan	Qalamda yozdi- qalam bilan yozdi
Chiqish kelishigi va ko‘makchi	-dan va orqali	Pochtadan yubordi- pochta orqali yubordi

Sintaktik tahlil jarayonida bosh kelishik shaklida turgan so‘z aksariyat hollarda ega, qaratqich kelishigidagi so‘z qaratqich aniqlovchi, tushum kelishigidagi so‘zlar vositasiz to‘ldiruvchi, shuningdek, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklarini olgan shaxs va narsa nomini bildiruvchi so‘zlar vositali to‘ldiruvchi, mazkur kelishik shakllardagi o‘rin-joy nomlari esa o‘rin holi vazifasini bajaradi.

Ba’zi tillarda kelishik kategoriyasi bir nechta so‘z turkumlariga xos bo‘lishi mumkin, masalan, o‘zbek tilida faqat ot va olmosh, rus tilida esa ot, sifat, son va olmosh kelishiklarda turlanadi.

Qiyoslang:

Карим мененг яқин до‘стимни учратибди.

Карим встретил моего близкого друга.

Garchi o‘zbek va rus tillarida kelishiklar oltitadan bo‘lsa-da, kelishik qo‘shimchalarining soni bir xil emas: o‘zbek tilida qo‘shimchalar soni beshta bo‘lsa, rus tilida birmuncha ko‘proq. Rus tilida kelishik qo‘shimchalari turlanadigan so‘zning jinsi va soniga ko‘ra qo‘shiladi.

O‘zbek tilida kelishik qo‘shimchalari so‘zning birlik va ko‘plikdaligidan qat’i nazar qo‘shilaversa (uy-uyga-uylarga), rus tilida ko‘plikdagi otlar o‘z kelishik qo‘shimchalariga ega bo‘ladi:

Род. падеж: дом (birlik) - домов (ko‘plik)

Дат. падеж: дому(birlik) - домом(ko‘plik). [6. 79]

Yuqorida aytib o‘tilganidek, rus tili grammatikasida 6 ta kelishik shakli mavjud bo‘lib, ular “падеж” atamasi bilan yuritiladi. Ularning har biri o‘z so‘rog‘iga va kelishik shakllari bilan birga qo‘llaniluvchi old ko‘makchilarga (предлоги) ega (Именительный падеж dan tashqari). Ismlarning kelishiklarda birlik (единственное число) va ko‘plik (множественное число) sonda o‘zgarishi склонение (turlanish) deb ataladi.

Gapda “Именительный падеж” shaklini olgan so‘z mustaqil hisoblanib, hech qanday old ko‘makchilarni olmaydi va gapda ega vazifasini bajaradi. Undan boshqa barcha kelishik shakllari nomustaqil (зависимый, косвенный) sanalib, old ko‘makchi bilan yoki usiz ham qo‘llanilishi mumkin. [10. 105] Quyida rus tilidagi ismlar oilasiga mansub so‘zlarning kelishik shakllarida qanday turlanishini ko‘rib chiqamiz:

ПАДЕЖИ	Мужской род	Женский род	Средний род	Множественный число
Именительный падеж	какой? белый снег	какая? желтая роза	какое? голубое небо	какие? ясные дни
Родительный падеж	какого? белого снега	какой? желтой розы	какого? голубого неба	каких? ясных дней
Дательный падеж	какому? белому снегу	какой? желтой розе	какому? голубому небу	каким? ясным дням
Винительный падеж	какой? белый снег	какую? желтую розу	какое? голубое небо	какие? ясные дни
Творительный падеж	каким? белом снегом	какой? желтой розой	каким? голубым небом	какими? ясными днями
Предложный падеж	о каком? о белом снеге	о какой? о желтой розе	о каком? о голубом небе	о каких? о ясных днях

Rus tilida olmoshlarning kelishikda turlanishi [12. 49]

Падежи	Единственное число				Множественное число		
И.п	я	ты	он/оно	она	мы	вы	они
Р.п	меня	тебя	его	её	нас	вас	их
Д.п	мне	тебе	ему	ей	нам	вам	им
В.п	меня	тебя	его	её	нас	вас	их
Т.п	мною	тобой	им	ею	нами	вами	ими
П.п	обо мне	о тебе	о нем	о ней	о нас	о вас	о них

Jadvallardan ko‘rishimiz mumkinki, rus tilidagi kelishik kategoriyasi shakllar soni va bajaradigan vazifasiga ko‘ra o‘zbek tilidagi kelishik kategoriyasiga qisman o‘xshash. Biroq ularning qo‘llanilishi, gapda bajaradigan sintaktik vazifasi, javob bo‘luvchi so‘roqlari va boshqa bir qancha jihatlari o‘zaro noo‘xshashliklar kelib chiqaradi. Buning asosiy sababi o‘zbek tili **agglutinativ**, rus tili esa **flektiv** til ekanligidir. Flektiv tillarda ma‘lum grammatik ma‘no ifodalovchi shakl so‘zga shunchaki qo‘shilib qolmasdan, uning o‘zagiga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Arab tilshunosligidagi kelishik kategoriyasi esa boshqa tillardan birmuncha farq qiladi. Arab tilida ismlar guruhiga kiruvchi so‘zlarda uch kelishik mavjud: bosh, qaratqich va tushum kelishigi. Kelishiklar o‘ziga xos qo‘shimchalarga ega va bu qo‘shimchalarotning gapdagi bajarayotgan vazifasi bilan uzviy bog‘liq. [5. 50]

Bosh kelishik- حالة الرفع- faqat ega va ot-kesimlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Qaratqich kelishigi- حالة الجر- ko‘makchilardan keyin va moslashmagan aniqlovchini ifodalash uchun ishlatiladi.

Tushum kelishigi- حالة النصب- to‘ldiruvchi va hollarni ifodalash uchun, bosh va qaratqich kelishigi ishlatilmaydigan hamma holatlarda ishlatiladi. [1. 75]

Birlik sondagi ismlarning kelishiklarda turlanishi [3. 53]

holat	kelishik	muzakkar jins	muannas jins	kelishik qo‘shimchasi
noaniq	bosh	كتاب kitob	مدرسة maktab	-un
	qaratqich	كتاب kitobning	مدرسة maktabning	-in
	tushum	كتاباً kitobni	مدرسة maktabni	-an
aniq	bosh	الكتاب kitob	المدرسة maktab	-u
	qaratqich	الكتاب kitobning	المدرسة maktabning	-i
	tushum	الكتاب kitobni	المدرسة maktabni	-a

Bu turlanish **uch kelishikli turlanish** deyiladi va shu yo‘sinda turlanuvchi so‘zlar **uch kelishikli so‘zlar** deyiladi.

Siniq ko‘plikdagi ismlar turlanishda birlik sondagi otlardan farq qilmaydi
[1. 75]

Kelishiklar	Noaniq holatda		Aniq holatda	
	کتب	طلبة	الكتب	الطلبة
Bosh kelishik	کتب	طلبة	الكتب	الطلبة
Qaratqich kelishigi	کتب	طلبة	الكتب	الطلبة
Tushum kelishigi	کتبًا	طلبةً	الكتب	الطلبة

Arab tilida ot va sifatlarning asosiy qismi uch kelishikli so‘zlar hisoblanadi va ular yuqoridagi jadval asosida turlanadi. Bular noaniq holatda kelganida tanvin qo‘shimchasi bilan tugaydigan birlik va siniq ko‘plikdagi so‘zlardir. دفتر , كلية , معهد , (birlik) قلوب , مدينة (birlik) أجنحة , (birlik) أقلام , (birlik) قلوب , مدينة jumlasidandir. [5. 51]

Ikkilik sondagi so‘zlar kelishikda quyidagicha turlanadi:

No	Kelishiklar	Noaniq holatda		Aniq holatda	
		Mz	Mn	Mz	Mn
1	Bosh kelishik	كتابان	مجلتان	الكتابان	المجلتان
2	Qaratqich kelishigi	كتابين	مجلتين	الكتابين	المجلتين
3	Tushum kelishigi	كتابين	مجلتين	الكتابين	المجلتين

Jadvalda ko‘rinib turganidek, ikkilik sondagi so‘zning qaratqich va tushum kelishiklari bir xil qo‘shimchaga ega. Shuningdek, aniq holda ham, noaniq holda ham bir xil kelishik qo‘shimchalarini oladilar.

Shu bilan birga, muzakkar va muannas so‘zlar ham kelishiklarda bir xil qo‘shimchaga ega bo‘ladi.

Muzakkar to‘g‘ri ko‘plikdagi so‘zlar kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

No	Kelishiklar	Noaniq holatda	Aniq holatda
----	-------------	----------------	--------------

1	Bosh kelishik	فَلَاخُونَ	الْفَلَاخُونَ
2	Qaratqich kelishigi	فَلَاجِينٌ	الْفَلَاجِينُ
3	Tushum kelishigi	فَلَاجِينٌ	الْفَلَاجِينُ

Muannas to‘g‘ri ko‘plikdagi so‘zlarning kelishikda turlanishi quyidagichadir:

No	Kelishiklar	Noaniq holatda	Aniq holatda
1	Bosh kelishik	فَلَاخَاتٌ	الْفَلَاخَاتُ
2	Qaratqich kelishigi	فَلَاحَاتٍ	الْفَلَاحَاتِ
3	Tushum kelishigi	فَلَاحَاتٍ	الْفَلَاحَاتِ

Jadvallardan ko‘rinib turganidek, muzakkar va muannas to‘g‘ri ko‘plikdagi so‘zlarda qaratqich va tushum kelishiklari bir xil qo‘shimcha oladilar hamda aniq va noaniq holatlarda kelishik qo‘shimchalari o‘zgaraydi.

Ilgari aytib o‘tganimizdek, ko‘rsatish olmoshlari kelishiklarda turlanmaydi. Lekin ularning ikkilik sondagi variantlari qaratqich va tushum kelishiklarida boshqacha shaklda bo‘ladi [5. 52]:

No	Kelishiklar	Yaqindagi predmet		Uzoqdagi predmet	
		mz	mn	mz	mn
1	Bosh kelishik	هَذَا	هَئَانِ	ذَانِكَ	تَانِكَ
2	Qaratqich kelishigi	هَذَيْنِ	هَاتَيْنِ	ذَيْنِكَ	تَيْنِكَ
3	Tushum kelishigi	هَذَيْنِ	هَاتَيْنِ	ذَيْنِكَ	تَيْنِكَ

Gapning egasi, ot kesimli gapning egasi va kesimi hamda ularning moslashgan aniqlovchilari ko‘pincha bosh kelishikda keladi. Biror predlog bilan kelgan yoki moslashmagan aniqlovchi bo‘lib kelgan ot o‘zining moslashgan aniqlovchilari bilan birga qaratqich kelishigida, vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib kelgan otlar esa tushum kelishigida keladi [5. 52].

Ba‘zi ismlar “ال” artikli bo‘lmagan holda tanvin dammaga emas, dammaning o‘zi bilan tugaydi. Masalan, احمد - Ahmad, طشقند - Toshkent, علماء - olimlar, جرايد - gazetalar. Ularning qaratqich kelishigidagi shakli tushum kelishigidagi bilan bir xil bo‘ladi: المدارس, علماء, طشقند, احمد. Bunday ismlar “ikki kelishikli” deyiladi. Ikki kelishikli ismga “ال” yoki moslashmagan aniqlovchi qo‘shilsa, uch kelishikli bo‘lib qoladi: المدارس - المدارس, العلماء - العلماء, العلماء - العلماء.

،مصطفى، بخارا موسكو، kabi cho‘ziq “a” yoki “u” bilan tugagan ismlar kelishiklarda o‘zgarmaydi [1. 84].

Arab tilidagi ba’zi ismlar kelishiklarda turlanganda cho‘ziq unlilar bilan ham tugashi mumkin. Quyida bu holat kuzatiladigan barcha ismlar ro‘yxati keltiriladi [11. 297]:

Ismlar	Bosh kelishik	Qaratqich kelishigi	Tushum kelishigi
أَبٌ	أَبُو	أَبِي	أَبَا
أَخٌ	أَخُو	أَخِي	أَخَا
حَمٌّ	حَمُو	حَمِي	حَمَا
هَنَّ	هَنُو	هَنِي	هَنَا
فَمٌّ	فُو	فِي	فَا
ذُو	ذُو	ذِي	ذَا

Hind-yevropa tillar oilasining german guruhiga mansub bo‘lgan ingliz tilida ham kishilik kategoriyasi bor, biroq boshqa tillardan farqli ravishda unda barcha kelishik ma’nolarini ifodalash uchun kelishik shakllari mavjud emas.

1. Ingliz tilida otlarda faqat ikkita kelishik bor:

a) Bosh (umumiy) kelishik (**the Common Case**);

b) Qaratqich kelishigi (**the Possessive Case**).

2. Umumiy kelishikdagi otlarning hech qanday qo‘shimchasi bo‘lmaydi, predlog bilan kelmaganda ularning boshqa so‘zlar bilan munosabati gapdagi o‘rniga qarab belgilanadi. Ot-kesimdan oldin kelsa, gapning egasi bo‘ladi, predlogsiz ot-kesimdan keyin kelsa gapda to‘ldiruvchi bo‘lib keladi:

The teacher showed **the students a diagram**- O‘qituvchi talabalarga diagramma ko‘rsatdi.

3. Qaratqich kelishigi otga ‘s (apostrofli s qo‘shimchasi) qo‘shish bilan yasaladi. Bu qo‘shimcha ko‘plik qo‘shimchasi s ga o‘xshab [s], [z], [iz] deb talaffuz qilinadi: **the girl’s** hat- qizning shlyapasi, **Jack’s** friend- Jekning do‘sti.

4. Qaratqich kelishigi ko‘plikdagi otlardan keyin faqat apostrof belgisini qo‘yish bilan yasaladi: **the boys’** books- bolalarning kitoblari.

Agar otning ko‘plikdagi shakli -s qo‘shimchasi qo‘shmasdan, o‘zak o‘zgarishi bilan yasalgan bo‘lsa, uning qaratqich kelishikdagi shakli -s qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi: **the workmen’s** tools- ishchilarning asboblari.

5. Qo‘shma so‘zlarga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi oxirgi so‘zga qo‘shiladi: **the commander-in-chief’s** order- bosh qo‘mondonning buyrug‘i.

6. Buyumning egasi (xo‘jayini) ikki yoki undan ortiq kishi bo‘lsa, qaratqich kelishigi qo‘shimchasi oxirgi otga qo‘shiladi: **Peter and Helen’s** flat is large- Piter va Helenning kvartirasi katta.

7. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasini olgan ot boshqa otdan oldin kelib, o‘zidan keyin kelgan otning aniqlovchisi bo‘ladi: **Kate’s** friends- Keytning dugonalari.

8. Agar otning boshqa aniqlovchisi bo‘lsa, qaratqich kelishigidagi ot o‘sha aniqlovchilardan oldin keladi: **the student’s** new dictionary- studentning yangi lug‘ati.

9. Qaratqich kelishigidagi otdan keyin kelgan ot artikl bilan ishlatil-maydi, chunki qaratqich kelishigidagi ot o‘zidan keyin kelgan otning ko‘rsatkichidir. **The children’s mother, the student’s dictionary** misollaridagi artikl qaratqich kelishigidagi otlarga qarashli, ulardan keyin kelgan otlarga emas.

10. Egalikni ifodalash uchun qaratqich kelishigidagi ot bilan bir qatorda **of** predlogi ham ishlatiladi: Breakfast is the first meal **of** the day- Nonushta kunning birinchi ovqati.

11. Ko‘pincha ko‘plikdagi otlar qaratqich kelishigida **of** predlogi bilan ishlatiladi: Where have you put the **tools of the workers?**- Ishchilarning asboblarini qayerga qo‘ydingiz?

12. Ikkita qaratqich kelishigi (egalik) qo‘shimchasini olgan ot kamdan-kam holatda oldinma-ketin keladi, ikkinchisi ko‘pincha **of** predlogi bilan almashtiriladi: **He is my sister’s husband’s father** — o‘rnida — He is **the father of my sister’s husband** deb ishlatiladi.

13. Bitta yaxlit ma‘noni bildirgan so‘zlar kelganda, qo‘shimcha oxirgi so‘zga qo‘shiladi: **My elder brother Peter’s** son is very ill- Mening katta akam Piterning o‘g‘li juda kasal (og‘ir kasal).

Yuqoridagi vaziyatda **of** predlogini ishlatish afzal: **The son of my elder brother Peter is very ill.**

14. **house** — uy, **office** — idora, **shop** — do‘kon kabi so‘zlar ko‘pincha qaratqich kelishigi (egalik) qo‘shimchasi olgan otdan keyin tushib qoladi: I dined at my **friend’s** (=my friend’s house)- Men do‘stimmikida ovqatlandim. She went to the **baker’s** (=the baker’s shop)- U novvoynikiga ketdi.

Kishilik olmoshlari har doim olmosh-ot bo‘lib keladi. Ularda ikkita kelishik bor: bosh kelishik (the Nominative Case) va obyekt kelishigi (the Objective Case).

Shaxs- son	Bosh kelishik	Obyekt kelishigi
Birlik	I - men You - sen He, she, it - u	Me You Him, her, it

Ko‘plik	We - biz You - siz They - ular	Us You Them
---------	--------------------------------------	-------------------

Bosh kelishikdagi kishilik olmoshlari gapda ega va ot-kesim tarkibida keladi:

I saw that picture (ega) - Men u suratni ko‘rdim.

It is I (he, we va h.k.) - Bu men (u, biz va h.k.).

Izoh: Og‘zaki nutqda ot-kesim tarkibida kishilik olmoshining obyektiv kelishikdagi shakli ham uchraydi: it’s me (him, us). It’s me shakli ayniqsa ko‘proq uchraydi [2. 117].

Ingliz tilida so‘zlashuvchilarning grammatik holatlar haqida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lishlari shart emasligining sabablaridan biri shundaki, ular ingliz grammatikasiga unchalik ta’sir qilmaydi. Olmoshlar bundan mustasno, otlar qaysi holatda bo‘lishidan qat’i nazar, deyarli bir xil bo‘ladi [4].

Xulosa qilib aytganda, dunyodagi barcha tillar, ularning qaysi lisoniy oilaga mansubligidan qat’i nazar kelishik kategoriyasiga ega. Zero, kelishiklarsiz nutqni aniq va tushunarli bayon etib berishning deyarli iloji yo‘q. Ammo tan olish kerakki, umumiy tilshunoslikda kelishik kategoriyasining mavjudligi barcha tillarda u bir xil ifoda etiladi degani emas. Ba’zi tillardagi kelishik shakllarining soni nisbatan ko‘proq bo‘lsa, ba’zilarida bir kelishik shakli bir necha grammatik ma’no ifodalash vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdujabborov A. Arab tili. -Toshkent: Tafakkur, 2020.
2. G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. -Toshkent: Turon- Iqbol, 2010.
3. Hasanov M. Arab tili. -Toshkent: Global books, 2019.
4. <https://www.babbel.com/en/magazine/grammatical-cases-in-english>
5. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. -Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
6. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: Talqin, 2005.
8. Rasulova N. Ona tilidan ma’ruzalar. -Toshkent: Nurafshon ziyo yog‘dusi, 2018.
9. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent, 2009.
10. Вульф О., Боярская Н. Грамматика русского языка. -Ташкент: Yangiyo‘l poligraf servis, 2018.
11. Гранде Б. Курс арабской грамматики в сравнительно- историческом освещении. -Москва: Восточная литература, 2001.
12. Джалалова С., Исамова П. Русский язык по специальности. -Ташкент, 2023.